




Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



MENDELEEV DMITRIY IVANOVICH
(1834-1907)

2022
FEVRAL
№37



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00



www.taqiqot.uz



www.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
3-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-3**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-3**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 37-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 17 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

1. Ismatova Nigina Nuriddinovna, B.N.Rizayev	
O'RTA OSIYODA ILK DAVLATLARNING VUJUDGA KELISH JARAYONI :XORAZMDA	
ILK DAVLATCHILIK ASOSLARINING PAYDO BO'LISHI	7
2. Джаббарова Адолатхон Казакбаевна	
АРХИТЕКТУРА, СТРОИТЕЛЬСТВА И БЫТ СРЕДНЕВЕКОВОГО ХОРЕЗМА	9
3. Xurramov Xamid Boboqul o'g'li	
SHEROBOD VOHASI YODGORLIKHLARI EVOLUTSIYASIDA JONDAVLATTEPANING	
O'RNI	11
4. Шоира Индиаминова	
ХИТОЙ МАНБАЛАРИДА САМАРҚАНД СУФДИ ТАРИХИ.....	13
5. Otaboyeva Shahnoza Maqsudbek qizi, Madirimova Layloxon Omanbayevna	
CHET TILINI O'RGANISHDA MOTIVATSIYANI OSHIRISH USULLARI	15



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

O’RTA OSIYODA ILK DAVLATLARNING VUJUDGA KELISH JARAYONI :XORAZMDA ILK DAVLATCHILIK ASOSLARINING PAYDO BO‘LISHI.

Ismatova Nigina Nuriddinovna
BuxDU “Jahon tarixi” kafedrasi magistranti
Ilmiy rahbar: T.f.f.d (Phd) B.N.Rizayev

Anotatsiya : O’rta Osiyo mintaqasidagi eng qadimiy davlatlardan biri bo’lgan Xorazm ko’p asrlar davomida olimlarning diqqat markazida bo’lib kelgan. Mazkur maqolada O’rta Osiyoda ilk davlatlarning vujudga kelishi jarayonida Xorazmnning tutgan o’rnini haqida so’z yuritiladi. Shuningdek Xorazmnning boy tarixi va madaniyati adabiyotlarda qanday yortilganligi ochib berilgan.

Kalit so’zlar: O’rta Osiyo, Xorazm, Avesto, arxeologik tadqiqot, Ko’zaliqir, shaharsozlik, Beruniy, S.P.Tolstov, 1914-yil, ekspeditsiyasi, “Katta Xorazm”

Bugungi o‘z-o‘zini anglab, mustaqilligimiz kun sayin mustahkamlanib borayotgan bir sharoitda ona yurtning har bir farzandi uchun Vatanimiz tarixini sevish, qadrlash, uni chuqur o‘rganishdan muqaddasroq kuch bo‘lmasa kerak, chunki kelajak yo‘llarini o‘tmish manaviyati nurlantiradi. SHuning uchun ham ajdodlarimiz tarixini haqqoniy bayon qilish, uning ochilmagan sahifalarini yoritish hozirgi paytning dolzarb mavzusidan biriga aylangan.

Xorazm vohasi qadimiy boy tarix va madaniyatga ega. Uning ilk o‘tmish tarixi zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”, yunon, fors manbalari va markaziy-osiyolik buyuk allomalarining asarlarida yozib qoldirilgan. SHu bilan birgalikda XX asrning 30-yillarda boshlangan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida, miloddan avvalgi birinchi ming yilliklarga oid ko’p sonli arxeologik yodgorliklar, suniy sug‘orish inshootlari aniqlandi va tadqiq qilindi. Natijada Qadimiy Xorazmnning afsonalarga burkangan tarixini tiklash va tarixshunoslikning eng munozarali masalasi bo’lgan ilk davlat shakllanish jarayonini tushuntirishga imkon tug‘ildi.

Xorazmda vujudga kelgan ilk davlat tarixi xorazmlik buyuk allomalar tomonidan ham yoritilgan. Ularning asarlarida o‘tmish voqealari tarixi biroz afsonaviy xarakter kasb etgan bo‘lsada, o‘zidagi malum bir tarixiy haqiqati borligi bilan qimmatlidir. Jumladan Abu Rayxon Beruniyning “O‘tmishdan qolgan yodgorliklar” asarida: “Xorazmda odamlar joylashishi Iskandar 980 yil ilgari bo‘lgan... (miloddan avvalgi 1212 yil). SHu vaqtida Kayxusrav Xorazmga ko‘chib turk podsholari ustidan hukmronligini yurgazgan edi. Bu voqealari Xorazmga odamlar joylashishidan 92 yil keyin bo‘lgan”¹ (miloddan avvalgi 1120 yil) – deb ko‘rsatadi. Demak Beruniyning malumotiga ko‘ra, Xorazmda ilk davlat miloddan avvalgi XI-XII asrlarda vujudga kelgan. Lekin bu malumot arxeologik jihatdan o‘z tasdig‘ini topmagan. SHu sababdan ham tadqiqotchilar Beruniyning noto‘g‘ri malumot bergenligini shubha ostiga olib, uning alohida kalendar sistemasidan foydalanganligini takidlashadi. Ammo mazkur kalendar sistemasi hozirgacha aniqlangan emas.

Beruniy, Firdavsiy asarlarida va “Avesto” kitobida ilk Xorazm davlatiga asos solgan sulola-Erondan kelgan Siyovush to‘g‘risidagi malumot mavjud. Buni Xorazm hududidan topilgan qadimiy tangalar ham tasdiqlaydi. Miloddan avvalgi II asrdan milodiy VII asrgacha muomalada bo‘lgan mazkur tangalarda suvoriy tasvir bor, tadqiqotchilar uni Siyovush deb hisoblashadi.²

Xorazmda vujudga kelgan ilk davlat masalasi dastlab XX asrda evropalik olimlar tomonidan ilgari surilgan. Nemis olimi V.Markvat Paxlaviy zardushtiylarning Xorazmga ko‘p etibor bergenliklarini inobatga olib, Xorazm “Avesto”da bir marta tilga olinishiga qaramay, u boshqa nom ostida berilgan degan xulosaga keladi. “Avesto”da aytilgan afsonaviy “Ayryonam Vayjo”ning

¹ Норкулов Н. Беруний ва Хоразм. Тошкент, 1973, 71-бет.

² Ртвеладзе Э.В. Урта Осиёнинг кадимги тангалари. Тошкент, 1987. 8-бет.



geografik tasvirlarini Xorazm bilan solishtiradi. Bu afsonaviy mamlakat o‘ziga bir necha qabilalarni birlashtirgan Xorazm podsholigidir degan ilmiy farazini 1901 yilda nashr qilingan asarida bayon qiladi.

1914 yilda Kissiling Geradotning “Tarix” asaridagi malumotlari asosida qadimiy Xorazm podsholigi mavjud bo‘lganligi to‘g‘risidagi fikrni bildiradi. 1938 yilda V. Markwart 1901 yilda ilgari surgan g‘oyasini yunon yozma manbalari malumotlari bilan taqqoslaydi. O‘rtal Osiyo va Xurosonnig keng hududlarida ahamoniylardan oldin qudratli “Katta Xorazm” davlati hukmronlik qilganligini yana bir bor isbotlaydi.

Arxeologik tadqiqotlar “Katta Xorazm” to‘g‘risida ilgari surilgan ilmiy farazning to‘g‘riligini asoslab berdi. Lekin mazkur davrni mavjud yozma manbalar va arxeologik malumotlar orqali to‘liq, tariflashning imkonи bo‘lmaydi, chunki bir tomondan mavjud qisqa yozma manbalarning bazi xabarlarini arxeologik tadqiqotlar asoslamaydi, ikkinchi tomondan arxeologik malumotlar o‘sha davrning nomalum jihatlarini yozdi. Natijada ilk Xorazm davlati tuzumi haqida tadqiqotchilar orasida turli fikr va mulohazalar vujudga keldi. Bu ayniqsa. Davlatning vujudga kelgan hududi, uning tasir doirasi va chegaralarini aniqlashda namoyon bo‘ldi.

“Katta Xorazm” davlatining vujudga kelgan joyini aniqlashda tadqiqotchilar orasida ikki xil yo‘nalish vujudga kelgan. Birinchi yo‘nalish tarafdorlari “Katta Xorazm” davlati Xorazm hududlarida vujudga kelgan bo‘lib, uning tasir doirasi SHimoliy Afg‘oniston va SHarqiy Eronga qadar yoyilgan deb hisoblaganlar (S.P.Tolstov, M.G.Vorobeva, I.M.Dyakonov).

Ikkinchи yo‘nalish vakillari esa xorazmiylar dastlab Mari yoki Hirot atrofida yashab, o‘z podsholiklariga asos solganlar. Fasllar siquvi natijasida shimolga- quyи Amudaryo bo‘ylariga borib o‘z faoliyatini davom ettirganlar-degan g‘oyani ilgari surganlar. (V.M.Masson, YA.G‘.G‘ulomov, B.I.Vaynberg, I.V.Pyankov).

“Katta Xorazm” masalasini o‘rganish yuzasidan S.P.Tolstovning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xorazm hududida miloddan avvalgi VIII-VI asrlarga oid yirik irrigatsiya inshotlarining mavjudligi va qadimiy kanallar bo‘ylaridan topilgan manzilgohlar asosan Ko‘zaliqir, Qalashqir qalalaridagi moddiy manbalarni Xorazm massaget ittifoqi tashkil topgandan keyingina bu inshotlar bunyod etilgan.¹ Xorazmliklar Janubiy Turkmaniston erlarini bosib olib, bu vohalarda hukmronlik qilish uchun axmoniylar Eron bilan kurash olib borganlar deb xulosa chiqardi V. M. Masson Xorazmda o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar bilan S.P.Tolstovning ilgari surgan g‘oyalarini bir-biri bilan solishtirib quyidagi xulosacha qildi: “Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan aniqlangan arxeologik materiallar bu erda axmoniylardan oldin davlat tuzumi mavjudligini isbotlay olmaydi, chunki topilgan sug‘orish inshootlari va yirik kanallar miloddan avvalgi VI-V asrlarga oiddir. Agar arxeologiya Xorazmda miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga oid yirik qala va sug‘orish inshootlari mavjudligini tasdiqlasada, ular qabilalarning yirik siyosiy birlashmasi mavjud bo‘lganligini ko‘rsata olmaydi. SHu bilan birga bu davrda Xorazmda ibridoq, jamoa tuzimining emirilishi davri davom etayotgan bo‘lsada, bu hol janubda nisbatan sekin kechgan. Geradotning Ak daryosi haqidagi malumotini to‘g‘ri deb hisoblasak, biz bu daryoni faqat Tajan yoki Murg‘ob daryolari bilan solishtirishimiz mumkin”.² V.M.Masson Xorazmda yirik qabilalar ittifoqi mavjud bo‘lganligini shubha ostiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov YA.G‘. Xorazmning sug‘orilish tarixi. Toshkent, 1959
2. Одилов Ш.-Фарбий Сўғдда давлатчилик ва маданий тараққиётнинг юзага келиши ва маълумотлари //Ўзбекистонда ижтимоий фан. 1998йил.№4.5.
3. Норкулов Н. Беруний ва Хоразм. Тошкент, 1973, 71-бет.
4. Ртвеладзе Э.В. Урта Осиёнинг кадимги тангалари. Тошкент, 1987. 8-бет.

¹ G‘ulomov YA.G‘. Xorazmning sug‘orilish tarixi. Toshkent, 1959

² Одилов Ш.-Фарбий Сўғдда давлатчилик ва маданий тараққиётнинг юзага келиши ва маълумотлари //Ўзбекистонда ижтимоий фан. 1998йил.№4.5.



АРХИТЕКТУРА, СТРОИТЕЛЬСТВА И БЫТ СРЕДНЕВЕКОВОГО ХОРЕЗМА
(по материалам Хорезмской Археолого-Этнографической экспедиции)

Джаббарова Адолатхон Казакбаевна
Преподаватель школы №28 Ургенчского района
Хорезмской области, Республики Узбекистан
Ургенч, Узбекистан

Аннотация. Статья посвящена строительства и реконструкция внутреннего убранства хорезмийского жилища. На основе данных Хорезмской Археолого-Этнографической экспедиции, а также книг по Хорезму. В статье проанализированы архитектура, внутренний облик жилища и быт Средневекового Хорезма.

Ключевые слова: архитектура, жилища, искусства, кувшин, гончар, ремесло, ремесленник.

Annotation. The article is devoted to the construction and reconstruction of the interior decoration of the Khorezm dwelling. Based on the data of the Khorezm Archaeological and Ethnographic Expedition, as well as books on Khorezm. The article analyzes the architecture, the internal appearance of the dwelling and being of Medieval Khorezm.

Key words: architecture, dwellings, arts, jug, potter, craft, craftsman.

Введение. Формированию духовной культуры народов всей Средней Азии прогрессивное воздействие оказывала цивилизация Хорезма. Хорезмский оазис, расположенный в низовьях Амударьи, по праву считается одним из очагов древнейшей цивилизации. Здесь издревле развивалось земледелие, создавалась мощная ирригационная система. Наряду с этим, как отмечал С.П.Толстов, — обилие городов, расцвет ремесла, искусства, далеко идущие торговые связи показывали высокий уровень цивилизации античного Хорезма. [2, с. 342]. Средней Азии существовало великое Хорезмское государство. Это доказано, и часть материальной культуры древнего Хорезма раскрыта многолетним кропотливым упорным трудом археологов, лингвистов, этнографов, историков. Известный историк, археолог, этнограф и исследователь народов Средней Азии - Сергей Павлович Толстов 1937 году организовал Хорезмскую экспедицию, который раскрыл огромное количество национально-культурных памятников древности и средневековья.

Таким образом, в статье мы будем изучать реконструкция внутреннего убранства и строительства хорезмийского жилища на основе данных книг С.П.Толстова по Хорезму. По данным археологов внутри жилища находились посуда (кувшины, блюдца, чаши, тарелки, горшки), ремесло (пряслица), строительство (часть трубы водопровода, гвозди), игрушки (лошади), освещение (чараг). В жилище городского типа, то есть его хозяин - горожанин. Он может заниматься ремеслом, а также торговлей [3, с. 130].

В средневековом Хорезме развивалась ремесленничество. В данном государстве процветало гончарное производство, так как там находится огромное количество глины, также там процветало железодательное ремесло. Нередко при раскопках находились части стеклянных сосудов, что дает возможность предположить наличие мест производства стекла. С периодом средневековья связан расцвет феодализма, а с ним и рост городской жизни, расцвет торговых отношений, а соответственно и ремесел, а также рост культурного уровня населения. Все рецепты изготовления изделий передавались от деда к отцу, от отца к сыну, при этом приобретая некоторые модернизации. У ремесленников были и некоторые покровитель, вера в кого-либо приобретала все большее и большее распространение в это время. Для женщин покровительницей была дочь Мухаммеда - Фатима, для мастеров кузнецкого дела - библейский Давид, для плотников - Ной и т.д.[1, с. 411].

Строительство. При строительстве нового жилища приглашались все члены семьи примерно 15-20 человек, также помогали соседи. Мужчины активно обсуждали, как будет происходить строительство, какие материалы и где лучше добывать, а также затратность строительства. Родственники помогали не только с самим процессом строительства, но и с добычей и получением материалов. Главными материалами были глина и камыш, так же необходим был лес [3, с.150]. Но в Хорезме не было изобилия строительного леса, поэтому большое количество данного материала могли позволить себе лишь очень богатые люди. Строительство происходит слоями. Первым слоем служит основание стен, сделанное из глины, на него кладется объемный слой камыша. Все спрессовывается, а затем убираются лишние детали. Важно срезать лишнее до того момента, как глина застынет, для этого



использовалась специальная лопатка. Слоев обычно 5-6. Далее идет обустройство крыши, сначала кладутся деревянные балки, поверх камышовая сетка или просто камыш, затем посыпают песком и залепливают жирной глиной для непропускания воды. Деревянные балки также используются для дверных проемов. Полнотью здание имеет форму замкнутого прямоугольника. Когда все стены высыхали, то на них наносился определенный рисунок. Часто при раскопках находят стены с четким геометрическим рисунком, что свидетельствует о высоком мастерстве и интеллектуальном уровне мастеров средневекового Хорезма [1, с. 290-291].

После успешного восстановления оболочки, нужно заполнить ее предметами быта. При раскопках экспедиции археологи находили деревянные ступки, сумки для хранения муки, сделанные из кожи, а также чугунные казаны. Это все свидетельствует об активном разведении сельского хозяйства: животноводства и растениеводства. Одним из распространенных механизмов является чигирь и он служил для полива полей, находящихся выше уровня воды в каналах. Чигирь устроен таким образом, что одно зубчатое колесо приводится в действие верблюдом или ослом, оно в свою очередь приводит другое зубчатое колесо. Это колесо находится на одном стержне с другим более легким колесом с закрепленными сосудами для воды на нем. Это колесо устроено так, что часть его находится в воде. Вода в сосудах передается в специальный желоб, ведущий к полям. Чигирь является не единственным примером технического применения воды. При раскопках часто находили кирпичные водопроводы, проходящие рядом с караванными тропами. Данные водопроводы были связаны с водохранилищами[4].

Массивные железные гвозди, лезвия ножей и части предмета, похожего на серп находимые во время раскопок которые, находились внутри жилища свидетельствуют наличии железнодательного ремесла в древнем Хорезме. А также гвозди использовались для сколачивания вместе деревянных частей колеса[5].

Посуда является одним из важнейших источников информации, ведь она во многом используется в повседневном быту. Посуду условно можно разделить на две группы: для хранения и приготовления пищи и для сервировки стола. На основе данных музея мы выделили для первой группы сосуды и горшки, а для второй кувшины, блюдца, чаши. Важно отметить, что изобразительное искусство получило широкое распространение, на большинстве посуды присутствует та или иная роспись.

Начнем с первой выделенной группы, а именно сосуды и горшки. Уровень мастерства хорезмийцев был настолько высок, что их методы во многом сходы с методами гончаров 20 века. Сосуды производились на ножном станке. Многие сосуды украшались не только росписью, но и рельефными изображениями, одно из таких изображений - “бараньи рога”, так же нередко встречаются треугольники [2, с. 22]. Нередко находились фрагменты сосудов из стекла, подтверждений того, что эта технология была развита в Хорезме, не имеется, эти товары могли ввозиться через торговые пути или данное производство не было массово распространено.

Заключение. В заключение можно сказать, что история и быть древнего Хорезма разнообразна. В исследованиях реконструкция внутреннего убранства хорезмийского дома в средние века мы хотели восстановить облик и убранство Средневекового Хорезма. Вместе с тем эта работа стала лишь маленьким шагом к разгадке всех тайн, которые хранит в себе Хорезм и что бы продвигаться дальше нужно продолжать исследовать богатую историю этого государства.

Список литературы

1. Толстов, С.П. Труды Хорезмской Археолого-Этнографической экспедиции т.1/под ред.: С.П. Толстова, Т.А. Жданко - Москва: изд-во академии наук СССР, 1952. - 652с.
2. Толстов, С.П. По следам древнехорезмийских цивилизаций. /С.П. Толстов - Москва, Ленинград : Издательство академии наук СССР, 1948.-331с.
3. Неразик, Е.Е. Сельское жилище в Хорезме(I - XIV ВВ.)/ под ред.: С.П. Толстова - М.: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1976. — 256 с. — (Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Том IX).
- 4.<https://arheologija.ru/tolstov-horezmskaya-ekspeditsiya-1939-g/>
5. <https://kzref.org/rekonstrukciya-vnutrennego-ubranstva-horezmijskogo-doma-v-sred.html>



SHEROBOD VOHASI YODGORLIKHLARI EVOLUTSIYASIDA
JONDAVLATTEPANING O’RNI.

Xurramov Xamid Boboqul o’g’li

Terdu magistranti

xamidxurramov800@gmail.com

ANNOTATSIYA: Hozirgi kunda arxeologik yodgorliklarni tadqiq qilish va ularning yoshini aniqlash dolzarb muammo bo’lib turibdi. Shu sababli Sherobod vohasidagi Jondavlattepa yodgorligi ilmiy adabiyotlar orqali tadqiq qilindi.

KALIT SO’ZLAR: Sherobod vohasi, Jondavlattepa, Baqtriya, Evolutsiya, Ilk temir davri, Kushonlar davri.

1972 yil bahor mavsumida Baqtriya arxeologik ekspeditsiyasining qidiruv ishlari O’zbekiston SSR Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida jamlangan edi. Ekspeditsiya Jarqo’rg’on tumanidagi Xayitbodtепа va Angor tumanidagi Zartepa aholi punktlarida ham kichik tozalash va shurf ishlarni amalga oshirdi. Keling, ushbu ishlarning ba’zilarining qisqacha tavsifiga to’xtalib o’tamiz. Shunday qilib, Sheroboddan 8 km shimoliy-sharqda va Saitobod qishlog‘idan 1 km janubi-g‘arbda joylashgan Jondavlattepa (B-38) aholi punkti o’rganildi. U planda ko’p qirrali va 3B chizig‘i bo’ylab cho’zilgan. Hozirda tepalik qo’rg’oni har tomonidan botqoqli pasttekislik bilan o’ralgan. Kirish eshibi sharqiy devorning o’rtasida joylashgan. Tepalik qal’asining ichki refezi ancha tekis bo’lib, asta-sekin darvoza tomon pastga tushadi. Darvozalardan boshqa minoralardan asar ham yo’q. Hozirgi vaqtida aholi punktining katta maydoni qabriston sifatida ishlatiladi. Shimoliyg’arbiy burchakda deyarli to’rburchak qal’a joylashgan. U yer sathidan 13-15 m balandlikda ko’tariladi. Qadimgi manzilgoh yuzasidan salmoqli miqdorda sopol materiallar, mis tangalar, o’q uchlari va boshqa topilmalar topilgan bo’lib, ular Jondavlattepaning hayot davrini oldindan aniqlash imkonini beradi. Ahmoniyalar davriga oid turar joydan topilgan eng qadimiy sopol idishlardir. Bu juda barqaror bo’lmagan tekis tubiga o’tishda o’tkir nishabli kavanoz silindrishimon shakldagi idishlardir. Keyingi materialarga qadah, tovoq, kosa, oshxona qozonlari va boshqalar kiradi, ular devori juda yupqa bo’lib, qizildan jigarranggacha bo’lgan turli rangdagi angob bilan qoplangan. Angob usulidagi idishlar ko’pincha qo’shimcha ravishda vertikal yoki kamdan-kam hollarda gorizontal abraziv bilan qoplangan. Aholi punktining sharqiy qismiga kiraverish yaqinida tozalash ishlari olib borilganda qizil qirrali kulolchilik buyumlari bilan bir qatorda qora angob bilan qoplangan, ba’zan hatto sayqallangan ko’p miqdorda bo’z-gil sopol idishlar ham topilgan. Umuman olganda, posyolkadan olingan sopol material Kushonlar davrida kulolchilik yuqori darajada bo’lganligidan dalolat beradi. Manzilgohdan topilgan tangalar, asosan, kushon shohlari Kadfiz II, Kanishka va Vasudevaga tegishli. Aholi punktidagi tangalarning aksariyati hali aniqlanmagan, ammo ular orasida, ehtimol, oxirgi kushon-sosoniy tangalari ham bor. Turar joy chetidan bronza o’q uchlari topilgan. Eramizdan avvalgi I mingyillik o’rtalari-milodiy I asr o’rtalari Jondavlattepa aholi punkti atrofida ko’plab tepaliklar tarqalgan. Ulardan to’rttasida biz kichik qazishma va uchta qatlarni narsalarni ishlab chiqardik. Tepaliklardan biri tabiiy bo’lib chiqdi va bu yerda inson faoliyatining izlari topilmadi. Qolgan uchta tepalikda madaniy qatlarni bor, ammo binolarning aniq izlari yo’q. Ochiq maydon loy va xom g’isht bilan ehtiyojsizlik bilan o’ralgan bo’lib chiqdi. Ehtimol, bu tepaliklarda yer yuzasini tekislash uchun kichik tuproq platformalari qurilgan. Bunday platformalar issiq havoda yengil chodirlar uchun asos sifatida ishlatilishi mumkin edi. Jondavlattepa ilk temir davridan kushon-sosoniyalar davrigacha o’troq bo’lgan joy. Dastlabki 20 sm kulrang-sariq rangdagi bir xil xarakterdagи juda bo’sh qatlarni. Ushbu qatlama parchalar topilgan, tomirlar va butun shakllar, shu jumladan, past qirrali, qirrasi bir oz ichkariga egilgan, ochiq rangli shardning past kosas, tosh asboblarning bo’laklari, chetlari pastroq egilgan qovurilgan idish bo’lagi va ichki yuzasida kuyik izlari (mangal) topilgan. 54-qatlamdan ko’p sonli keramika parchalari chuqurning janubiy devorida paydo bo’ldi. Bu sohada yashil loy qatlami bilan shu jumladan, hayvonlar suyaklari, ikki tomoni yorilgan daryo toshlari bo’lgan juda ko’p tosh qurollar topilgan. Bu yerda biz ko’rinishida oldingi majmualardan birmuncha farq qiladigan sopol buyumlar parchalari bir nechtasini uchrattdik. Ulardan misol uchun, yengil sindirilgan vaza oyog’ining bo’lagiga e’tibor bering pastki qismida xarakterli tirkak bilan arxeologik buzilmagan idish shakli kelib chiqadi. Chuqurning sharqiy qismida qatlarni zinch



edi,kul, organik moddalar,kulolchilik, tosh quollar va boshqalarni o’z ichiga olgan. Idishning pastki qismida xarakterli tirkak bor edi. Bu yerda suyakdan yasalgan asbob ham topilgan, nozik va sayqallangan ichki qirrali hayvon shoxlari, xuddi shunday vosita o’tgan mavsumda topilgan (2005). Xuddi shu qatlamda kichik o’q uchi topilgan. Teng burchakli uchburchak shaklidagi pastki uchburchak shaklining proyeksiyasidagi uchi, yashirin, ichki ikki qanotli. Qisqichbaqasi tufayli yeng ajralib turmaydi,uchi uzunligi, taxminan 2,5 sm, taglikdagi kengligi 1,35 sm,teshik diametri butalar 0,5 sm.Uchi bronzadan qilingan va hajmiga ko’ra, u qushlar yoki mayda hayvonlarni ovlash uchun mo’ljallangan (?). Stratigrafik shurfning keyingi 55-qatlami bir xil bo’sh struktura bo’lib, kulolchilik parchalari, asosan, idishlar ko’p miqdorda qo’shilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, ayniqsa, keramika parchalari to’plangan qazishning o’rta qismida kuzatilgan. 56-qatlamni tanlash jarayonida madaniy qatlam ekanligi ma’lum bo’ldi. Keramika konsentratsiyasi bilan chuquurning sharqiy devorini kuzatib boradi. Ayni paytda, g’arbda qazish qismi, bir xil steril qatlam qayd etildi, holda har qanday qo’shimchalar. Bir xil struktura qumli xarakterdagи sarg’ish-kulrang rangga ega edi. Bu kontinental qatlam deb taxmin qilingan edi. Bu qatlam shimoldan janubga o’z sathidan pasayib ketgan. Qatlam chuquurning janubiy devoriga keltirildi, ya’ni qatlam sudraluvchi materik shu yo’nalishda tanlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Абдуллаев К.,Станчо Л.Археологические работы на Джандавлаттепа в 2005 году. Самарканд, 2006
- 2.Древняя Бактрия.Ленинград, ”Наука”,1974
- 3.Stanco L.,Tushlova P. Sherabad oasis:Tracing Historical Landscape in Southern Uzbekistan. Charles University Karolinum Press,2019



ХИТОЙ МАНБАЛАРИДА САМАРҚАНД СУҒДИ ТАРИХИ

СамДЧТИ в.б. доценти,
т.ф.ф.д (PhD) Шоира Индиаминова

Аннотация: Ушбу мақолада илк ўрта асрлар Самарқанд Суғди тарихи хитой манбаларида ёритилиши борасида фикр юритилган.

Калит сўзлар: Суғд, Сайёҳ Му, Кивенғон, Да Танг Шиой цзи, Ди Хуан жингшинг жи, Шифан жи, Шиую лу.

Тарихий манбаларда, Суғд билан Хитой ўртасидаги иқтисодий, маданий ва сиёсий алоқалар жуда қадим илдизларга эга бўлганлиги алоҳида таъкидланади. Хитойшунос олим Аблат Хўжаевнинг ёзишича, хитойлик сайёҳ милоддан аввалги 989-988 йилларда ҳозирги Ўзбекистон худудларидан ўтиб Каспий дengизининг ғарбий томонигача етиб борган. Сайёҳ Му ўша даврда Самарқанд шаҳри Кивенғон деб аталганини ёзib қолдирган. Шунингдек, А. Хўжаев Самарқанд тарихига оид яна бир неча хитой манбаларини келтириб ўтган. Биз кўйида олимнинг ушбу мақоласидан парчалар келтирамиз.

Самарқанд ҳақида маълумот берувчи қадими хитой сафарномаларининг яна бири – “Да Танг Шиой цзи” (Буюк Танг давридаги мамлакатларга оид хотиралар”) номли асаардир. Унинг муаллифи – будда динининг роҳиби Шюан Занг (596-664) Ҳиндистонда ўн етти йил яшайди. У631-632 йиллари Самарқандга келади. Ватанига қайтганидан сўнг, ўз сафари давомида ёзib олган хотираларини тартибга солиб, яхлит бир китоб шаклига келтиради.

Асаарда Самарқанд шаҳри, унинг маркази, хукмдори армияси, иқлими, урф-одатлари, ҳалқаро савдо муносабатларидаги обрў-эътибори қўйидагича таърифланади: “Самарқанд (Самуоян) давлатининг ҳудуди айланмасига (диаметри) 1600-1700 ли (921,6-679,2 км) келлар экан. У шарқдан ғарбга қараб чўзилган йирик давлат ҳисобланади. Пойтахт шахрининг ҳудуди айланмасига 20 ли (11,52 км)дан зиёд ва унинг деворлари ниҳоятда мустаҳкам, аҳолиси катта нуфузга эга. Хорижий мамлакатлардан олиб келинган қимматбаҳо моллар шу ерга тўпланган. Ерлари серҳосил, дехқончилик ривожланган, мевалари сероб, зотли отлар кўп. Самарқанднинг иқлими мўътадил, урф-одатлари эътиборга молик. Бу ерда барча хорижий мамлакатлардан келган одамларни учратиш мумкин. Узоқ-яқиндан келган кишилар даромад олиш мақсадида тинмай меҳнат қиласидар. Хукмдори қобилиятли ва серғайрат, қўшни давлатлар унинг сўзини икки қилмайди. Отлиқ қўшинлари кучли, аскарларининг ҳаммаси қўрқмас жангчилар, улар ниҳоятда ғайратли, ўлимга тик бора олади ва жангда орқага чекинмайди”.

Самарқанд ҳақида хабар берувчи навбатдаги сафарнома – “Ди Хуан жингшинг жи” (Ду Хуан борган ва юрган жойлар хотираси”) номли асаар ҳисобланади. Унинг муаллифи Ду Хуаннинг аниқ, туғилган ва вафот этган санаси номаълум. Аммо унинг 751 йилда араблар ва хитойлар ўртасида бўлиб ўтган жангда асир тушган зобитлардан бири экани тарихдан маълум. У ўн икки йил давомида Туркистоннинг турли ерларида ва араб мамлакатларида бўлган. 762-763 йилларда асирликдан озод бўлиб, дengиз йўли орқали Хитойга қайтганидан сўнг кўрган-кечирганлари ҳақида китоб ёзади. Сафарномада Самарқанднинг “ерлари ҳосилдор, аҳолиси кўп бўлишига қарамасдан, мамлакат катта эмас. Унда оловга сифинувчилар ибодатхонаси мавжуд. Давлат ишлари билан шуғулланувчилар айнан мана шу шаҳардан етишиб чиқар экан”, деб таъкидланади.

Вэй Же исмли сайёҳ қаламига мансуб яна бир асаар “Шифан жи” (“Ғарбдаги қўшни мамлакатлар хотираси”) деб аталади. Лекин у бизнинг давримизгача етиб келмаган. Ундан 766-801 йилларда Ду Ю исмли муаллифнинг қаламига мансуб бўлган “Тунгдян” (“Қонун- қоидалар ва урф-одатлар баёни”) номли китобида баъзи парчалар келтирилади. Асаарда Самарқанд ҳақида қўйидагилар баён этилган: “Самарқанд (Қанғ) давлатининг одамлари савдо ишларига пишиқ, болаларни беш ёшидан ўқитишади. Улар ёшлигидан савдо ишлари ва фойда олишга ўргатилади, тилла тангани осиб қўйиб, уни ўқ-ёй билан нишонга олиш мусобақаси ўтказилади. Тангага ўқи теккан киши бир кун давомида тахтга ўтқизилади. Фуқаролари тангрига қаттиқ эътиқод қиласиди ва барча ишларида ундан мадад сўрайди”.

“Шиую лу” (“Ғарбий саёҳат хотиралари”) номли сафарнома 1218 йилда Чингизхоннинг Туркистонга ҳарбий юриши даврида хонга маслаҳатчи сифатида ҳамроҳлик қилган ва этник



келиб чиқиши қорахитой (қидан)лардан бўлган Елюй Чуцай (1190-1244) қаламига мансубдир.

Сафарномада келтиришича, “Самарқанд “Семизкент (Шюнсиган) деб номланган. Фарбликлар тилида бу бой шаҳар демакдир. Унинг ерлари серхосил бўлгани, Зарафшон (Бинхэ) дарёси бўйида жойлашгани сабабли Фарбий Ляо фуқаролари ушбу шаҳарни Хэчжунг-фу, яъни “Дарёлар оралиғидаги шаҳар” деб аташган. Семизкент ахолисининг нуфузи катта. У ерда тилла ва мис тангалар ишлатилади. Атрофидаги ерларнинг ҳаммаси боғлар ва дарахтзорлардан иборат. Уйлари ҳовлили, ҳовлилар эса манзарали. Кушларнинг учиб юриши, булоклардан ҳосил бўлган ариқ сувларининг ҳовузларни тўлдириб оқиши, толлар бири бирига туташиб, шафтоли ва нок дарахтларининг қатор тизилиб тургани қўзга яққол ташланади. Қовунларнинг катталиги отнинг бошидек, шакли чўзинчоқ бўлади. Тариқ, майда донли гуруч ва йирик донли ловиялардан барча экинлар экилади. Ёз фаслида ёмғир ёғмайди, экинлар ариқлар орқали олиб келинган сув билан суғорилади. Узумни ачитиб мусаллас қилишади... Бу ерда тут дарахти ўсади, ипакчилик билан шуғулланувчилар пилладан олинган ипакдан мато тўқийдилар. Ундан тикилган кийимлар ялтираб туради. Маҳаллий халқ оқ кийимни байрам, қўқ рангли кийимни эса мотам либоси деб билади. Шунинг учун кўпчилик оқ рангли либосда юради” (Хўжаев А. “Ўзбекистон овози” газетаси. 25 январ 2014 йил. 12 (31.759)-сон.

Келтирилган парчалардан кўриниб турибдики. Хитойлик сайёҳлар Самарқанд ҳақида иложи борича кўпроқ маълумотларни ёзиб қолдиришга ҳаракат қилганлар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бернштам. А. Н. Тюрки и Средняя Азия в описании Хой Чао // ВДИ.1952. №1.
2. Бердимуродов А., Индиаминова Ш. Буюк ипак Йўли: қитъалар ва асрлар оша. Тошкент, 2017
3. Сюань-цзан. Записки о Западных странах (эпохи) Великой Тан. Введение, перевод с китайского и комментарий Н. В. Александровой. М.: Восточная литература, 2012
4. Смирнова О. И. Очерки из истории Согда. Москва,1970
5. Хўжаев А. Хитой манбаларида Самарқандга оид маълумотлар (V-VIII асрлар) // Ўзбекистон тарихи.



CHE TILINI O’RGANISHDA MOTIVATSIYANI OSHIRISH USULLARI

**Otaboyeva Shahnoza Maqsudbek qizi,
Madirimova Layloxon Omanbayevna**
Urganch shahar 26-son maktabning
ingliz tili fani o’qituvchilari

Annotatsiya: Maqlada chet tilining kasbiy faoliyatda (o’rtalintizom) ahamiyatini etarlicha baholamaslik natijasida yuzaga keladigan nolinguistik o’rtal muktabda o’quvchilarini chet tillarini o’rganishga undash muammolari ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: Motivatsiya, kommunikativ kompetentsiya, tilning o’ziga xosligi, dars shakllari, kasbiy yo’nalish, muvaffaqiyat holati.

Har bir o’qituvchi o’z darsini qiziqarli va qiziqarli o’tkazishni, o’quvchilarning bilimga qiziqishini, ijodiy aqliy faolligini oshirishni xohlaydi. O’quvchilar ko’pincha: «Nega til o’rganish kerak?» Savol ular uchun juda tabiiy va sodda, ammo u berilgan kishi uchun juda qiyin. Bunga javob saboq berishi kerak. Sinfda o’z harakatlarining maqsadini ko’rmasdan, o’quvchilar har bir nutq yoki til harakati, mashq yoki topshiriqni bajarish uchun motivga ega bo’lmaguncha, chet tilini o’ziga xos narsa sifatida qabul qiladilar. Amaliy tajriba shuni ko’rsatadiki, chet tilini o’rgatishda eng muhim narsa o’quvchilarning motivatsiyasidir.

Yaqin vaqtgacha ko’plab o’quvchilar uchun chet tilini o’rganishning yagona maqsadi yaxshi baho olish edi. Hayot o’zgardi - mavzuga munosabat o’zgardi. Chet tilini bilish kasbiy faoliyatning majburiy tarkibiy qismiga aylanadi va bo’sh vaqtini yanada to’liq va qiziqarli o’tkazishni ta’minlaydi. O’rtal kasb-hunar ta’limi ta’lim muassasalarida chet tilini o’rgatish mutaxassislarini kasbiy tayyorlash tizimining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Mehnat bozorida raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda professional mutaxassis kamida bitta chet tilini bilishi kerak.

Zamonaviy jamiyat o’quvchilarga chet tillarini o’zlashtirishda yuqori talablarni qo’yadi. Lekin o’quvchining o’zi o’rganishni istamasa, hech bir o’qituvchi dars bera olmaydi.

Davlat ta’lim standarti talablarini muvaffaqiyatlama amalga oshirish uchun chet tilini o’rganishga alohida yondashuv talab etiladi. Ko’pincha o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishi pasayadi, apatiya, befarqlik, tashvish paydo bo’ladi, bu o’quvchi fanni o’rganishda duch keladigan qiyinchiliklardan kelib chiqadi. O’quvchilar duch keladigan asosiy muammolar muktab tilini o’rgatmaslik, lug’at boyligi, grammatikani bilmaslikdir.

Chet tilini o’rganishdagi asosiy qiyinchiliklar motivatsion muammolarni o’z ichiga oladi, masalan:

- o’quvchilar o’z kasbiy faoliyatida chet tilini bilish istiqbollarini ko’rmaydilar;
- o’quvchilar chet tilini murakkabligi tufayli o’zlarini ataylab o’rganishga qodir emas deb hisoblashlari;
- o’quvchilarda chet tilini o’rganish jarayonida til va nutq vositalari yetarli emas.

Chet tili o’qituvchisining asosiy vazifalaridan biri o’rganilayotgan fanga qiziqish uyg’otish, bilimlarni o’zlashtirishga ongli ehtiyojni shakllantirishdir. Motivatsiya muammoasi o’quvchilar o’rganadigan har bir fanda paydo bo’ladi. Ammo bu chet tillarini o’rganishda eng keskin namoyon bo’ladi.

Chet tili darsining o’ziga xos xususiyatlari bor, chunki boshqa fanlardan farqli o’laroq, o’quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish o’rganishning asosiy maqsadi sifatida ilgari suriladi.

Chet tili o’quv predmeti sifatida odamlarning unga nisbatan salbiy, subyektiv munosabati bo’lib, u muktabda (hatto institutda) o’qitish sharoitida fanni o’zlashtirishga deyarli mos kelmaydigan juda qiyin til sifatida shakllanadi. Va haqiqatan ham, chet tilini o’rganish uchun siz tizimli va har kuni ishlashingiz kerak. Chet tilini muvaffaqiyatlama o’zlashtirishning asosiy omili motivatsiyadir.

“Motivatsiya” deganda o’qituvchining chet tillarini chuqurroq o’rganishga, unitakomillashtirishga va chet tili nutqini bilishga bo’lgan ehtiyojni rivojlantirishga ijobjiy munosabatda bo’lgan taqdirda ta’lim faoliyatini yo’naltiradigan rag’batlantiruvchi harakatlar tizimi tushuniladi. Motivatsiya - bu chet tilini o’zlashtirish, uning samaradorligini ta’minalash jarayonining eng muhim boshlanishi.

Ijobiy motivatsiyani shakllantirishda talabalarning kognitiv qiziqishlarini, ularning yangi bilim, ko’nikma va malakalarni egallashga bo’lgan ehtiyojini hisobga olish kerak. Chet tilini o’rganishda



esa asosiy va tabiiy ehtiyoj muloqotdir. Kuchli motivatsiyani shakllantirish va saqlash, kognitiv faollikni rivojlantirish, muloqot qilish istagi turli xil o'qitish usullari bilan osonlashtiriladi. Eng samarali darsning nostandardt shakllari.

Ingliz tili fanida ham, ushbu fanni o'qitish metodikasida ham motivatsiyani oshirish, o'quvchilarning “chet tili” faniga qiziqishini saqlab qolish va rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Murakkablik va ko'p qirralilikni ko'plab metodologlar ta'kidlaydilar va shunga muvofiq ular ushbu muammoni hal qilish uchun turli xil yondashuvlarni taklif qilishadi.

Shuningdek, kuzatishlar tufayli motivatsiyaning o'sishi quyidagilar orqali sodir bo'ladi, deb aytishimiz mumkin:

1. Darsda o'quvchilarni mustaqil ishlarga jalg qilish.
2. Muammoli vazifalar va vaziyatlar
3. Bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish
4. O'quv o'yinlaridan foydalanish
5. Mamlakatni o'rganish materiali va, albatta, o'quvchilarning do'stona munosabati.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бим И. Л. Обучение иностранному языку. Поиск новых путей/ Бим И. Л. // ИЯШ. – 1989. – №1 – с. 21
2. Зимняя И.А. Психология обучения иностранному языку в школе / Зимняя И.А. - М.: Просвещение, 1991. - 222 с.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 3-ҚИСМ

Масъул мұхаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000